

G‘ARB MUTAFAKKIRLARINING AXLOQIY ERKINLIK HAQIDAGI G‘OYALARI

Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti

v.b. dotsenti, DSc, Toshkent, O‘zbekiston

ruzmatova.dilnavoz@gmail.com

ORCID: 0000-0002-1857-7006

ANNOTATSIYA

Maqolada axloqiy erkinlik va axloqiy zarurat o‘rtasidagi munosabat falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Erkinlikning shaxsning ichki ma’naviy holati sifatidagi mohiyati ochib berilib, iroda erkinligi masalasi tarixiy-falsafiy kontekstda yoritiladi. Suqrot, Immanuil Kant, Benedikt Spinoza qarashlari asosida axloqiy erkinlikning zaruratni anglash bilan uzviy bog‘liqligi asoslab beriladi.

***Kalit so‘zlar:** erkinlik, axloqiy erkinlik, axloqiy zarurat, iroda erkinligi, axloq, zarurat va erkinlik dialektikasi, shaxs va jamiyat, axloqiy mas’uliyat, ijtimoiy zarurat, axloqiy ong.*

ABSTRACT

The article analyzes the relationship between moral freedom and moral necessity from a philosophical perspective. The essence of freedom as an internal spiritual state of a person is revealed, and the issue of free will is illuminated in a historical and philosophical context. Based on the views of Socrates, Immanuel Kant, and Benedict Spinoza, the inextricable connection of moral freedom with the understanding of necessity is substantiated.

***Keywords:** freedom, moral freedom, moral necessity, free will, morality, dialectics of necessity and freedom, individual and society, moral responsibility, social necessity, moral consciousness.*

KIRISH

Erkinlik muammosi falsafa tarixida doimo markaziy o‘rin egallab kelgan va inson mohiyatini anglash bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab masalalardan biridir. Ayniqsa, erkinlikning axloqiy jihati — shaxsning ongli tanlovi, mas’uliyati va jamiyat oldidagi burchi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishi — chuqur nazariy tahlilni talab qiladi. Erkinlik tushunchasining ko‘p qirrali va murakkab ekanligini nemis faylasufi Gegel ham alohida ta’kidlab, bu g‘oya turli tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishini qayd etgan.

Axloqiy erkinlik masalasi shaxs va jamiyat, zarurat va iroda, mas'uliyat va tanlov o'rtasidagi murakkab dialektik munosabatlarni ochib berishga xizmat qiladi. Inson faqat tashqi shart-sharoitlar bilan emas, balki o'zining ichki ma'naviy dunyosi, axloqiy ong darajasi orqali ham erkin yoki erkin emas bo'lishi mumkin. Shu bois axloqiy erkinlikni axloqiy zaruratdan ajratib ko'rib bo'lmaydi.

Mazkur maqolada axloqiy erkinlikning mohiyati, uning axloqiy zarurat bilan o'zaro aloqasi hamda bu masalaning falsafa tarixidagi talqinlari tahlil qilinadi. Turli davr mutafakkirlarining qarashlari asosida erkinlikning ongli tanlov va zaruratni anglash orqali ro'yobga chiqishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

MAVZU BO'YICHA ADABIYOTLAR SHARHI

Axloqiy erkinlik va zarurat muammosi bo'yicha klassik mutafakkirlar g'oyalari keyingi davrlarda ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ilmiy jihatdan o'rganilgan. Qadimgi yunon faylasufi Suqrotning axloqiy bilim va erkinlik haqidagi qarashlari Aleksey Losev [10] va Vasily Asmus [5] tomonidan tahlil qilingan. Platon va Aristotel etik qarashlari esa Frederik Kopleston [2] tadqiqotlarida erkin tanlov va axloqiy mas'uliyat nuqtayi nazaridan yoritilgan.

Yangi davr falsafasida Benedikt Spinozaning "anglab yetilgan zarurat" haqidagi g'oyasi Jil Delyoz [3] va Evald Ilyenkov [8] asarlarida rivojlantirilgan. Immanuil Kantning axloqiy erkinlik ta'limoti German Koen [1] va Sergey Gessen [7] tomonidan mas'uliyat va axloqiy qonun kontekstida o'rganilgan. Gegelning erkinlik haqidagi qarashlari esa Aleksandr Kojev [4] tomonidan tarixiy-dialektik jihatdan talqin qilingan.

Umuman, mazkur tadqiqotlar axloqiy erkinlik muammosining falsafada uzluksiz va dolzarb mavzu ekanini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada axloqiy erkinlik va axloqiy zarurat masalasi falsafiy tahlil orqali o'rganilgan. Tadqiqotning asosiy yondashuvlari quyidagilar: tarixiy-falsafiy tahlil orqali klassik mutafakkirlar qarashlari o'rganildi. Kontekstual va taqqoslash usullari bilan erkinlikning shaxs, jamiyat va ijtimoiy zarurat bilan bog'liqligi aniqlangan. Shu tarzda maqola axloqiy erkinlik va zaruratni tarixiy, nazariy va axloqiy nuqtai nazardan tizimli va konseptual yoritadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Erkinlik masalasi falsafada eng murakkab muammolardan biri hisoblanadi. O'z vaqtida Gegel shunday degan edi: «Erkinlik o'z g'oyasiga o'xshab ko'p ma'nolidir, u cheksiz tushunmovchiliklarga oson olib keladi va shu sababli boshqa biror g'oya ham bunday tushunmovchiliklarni o'z ichiga oladi, deb to'liq ishonch bilan aytib

bo‘lmaydi; kamdan-kam hollarda biror g‘oya yetarlicha tushunilmasdan turib to‘g‘ri baholanadi» [6, 291].

Erkinlik tushunchasining bir nechta jihatlari mavjud: falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, psixologik, estetik, axloqiy va boshqalar. Masalan, umumfalsafiy ma‘noda erkinlik — insonning tabiat kuchlari, ijtimoiy jarayonlar va o‘z ustidan qonuniyatlarni bilishga asoslangan hukmronlik darajasini ifodalaydi. Bizni esa ushbu umumiy muammoning faqat bitta jihati — axloqiy erkinlik va uning axloqiy zarurat bilan munosabati qiziqtiradi.

«Erkinlik» va «axloqiy erkinlik» tushunchalari umumiy va xususiy jihatdan o‘zaro bog‘liqdir. Agar «erkinlik» jamiyat holatini, shaxsga o‘z qobiliyatlarini erkin namoyon etish uchun beriladigan real shart-sharoitlarni ifodalasa, «axloqiy erkinlik» shaxsning ichki ma‘naviy holatini, jamiyat tomonidan yaratilgan sharoitlarda axloqiy talablarni anglash, qabul qilish va ularga ixtiyoriy bo‘ysunishni ifodalaydi. Shaxsning axloqiy erkinligi muammosi faqat uning umumfalsafiy va sotsiologik jihatlarni hisobga olgan holdagina hal etilishi mumkin.

Biz «axloqiy erkinlik» deganda, eng avvalo insonning erkin va ijodkor shaxs bo‘lish imkoniyatlari va qobiliyatlarini, o‘zining insoniy mohiyatini axloqiy faoliyatda namoyon eta olishini tushunishimiz kerak. Axloqiy erkinlikni axloqiy zaruratdan ajratib ko‘rib bo‘lmaydi. Falsafada zarurat deganda tabiat va jamiyatning ichki obyektiv qonunlariga muvofiq muqarrar ravishda yuz beradigan voqealar rivoji tushuniladi. Axloqiy zarurat esa — tarixan zarur bo‘lgan, obyektiv xarakterga ega, ijtimoiy munosabatlarga mos axloqiy talablar tizimidir.

Axloqiy erkinlik shaxsdan axloqiy zaruratni anglashni va o‘z faoliyatini unga moslashtirishni talab qiladi. Shu munosabat bilan erkinlik va zarurat o‘rtasidagi munosabatni ilmiy asosda hal etish muhim ahamiyatga ega. Erkinlik va zarurat munosabatlarida iroda erkinligini ko‘rsatmasdan turib axloq haqida gapirib bo‘lmaydi.

Ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv jarayonlari (tarixiy zarurat) bilan iroda erkinligi (tarixda odamlarning subyektiv faoliyati) o‘rtasidagi munosabat muammosi turli davrlarda turli axloqiy oqim vakillarini qiziqtirgan. Iroda erkinligi masalasi bilan birinchi bo‘lib qadimgi yunon faylasufi Suqrot shug‘ullangan. U iroda erkinligini insonning aql bilan tanlangan yo‘ldan borishiga xalaqit beruvchi noaqilona harakatlarni bartaraf etish majburiyati hamda aqlning hissiy mayllar ustidan g‘alabasini ta‘minlash sifatida tushungan. Uning fikricha, iroda erkinligiga aqliy rivojlanish, xususan axloqiy bilimlarni egallash orqali erishiladi. Masalan, har bir fazilat muayyan turdagi bilimlardan iborat: mardlik qo‘rquvni yengishga, donolik

qonunlarga rioya qilishga, iffat his-tuyg'ularga erk bermaslikka, adolat esa ezgulikni qanday amalga oshirishni o'rgatadi.

Kant falsafasida iroda erkinligi va mas'uliyat masalalariga katta e'tibor qaratilgan. U erkinlik va zaruratni birlashtirishga harakat qilgan. Etika tarixida Kant «axloqiy qonun», ya'ni kategorik buyruq — kategorik imperativ haqidagi ta'limoti bilan iz qoldirgan. Kant odamlardan axloq normalariga qat'iy rioya qilishni, o'z faoliyati va xatti-harakatlarini tahlil qilishni talab qiladi.

U shunday deydi: «O'z faoliyatini tahlil qilmaydigan va axloq normalariga rioya etmaydigan, o'zidan mamnun bo'lib yashaydigan inson hayoti qadr-qimmatga ega emas» [9, 224]. Chunki axloqiy qonunlarga bo'ysunish shaxsning axloqiy yetukligi va axloqiy erkinligiga erishishining asosiy shartidir. Axloqiy qonunlarga rioya qilish haqida u shuni ta'kidlaydiki, faylasuflar, barcha odamlar va barcha zamonlar uchun, har qanday vaziyatda faqat bitta axloq mavjud.

Spinoza insonda mutlaq iroda erkinligi yo'qligini, hamma narsa qat'iy zarurat bilan belgilanishini ta'kidlaydi. «Meningcha, erkinlik erkin qarorda emas..., balki erkin zaruratdadir» [11, 155], — deb yozgan u, ya'ni zaruratga tayanmasdan turib erkin tanlov bo'lishi mumkin emas. Agar zarurat anglab yetilsa, u erkinlikka aylanadi. Erkinlik — bu anglab yetilgan zaruratdir. Inson tabiat hodisalari va moyilliklarini anglab, ular ustidan hukmronlik qilishga qodir bo'lsa, u erkin bo'ladi. Erkinlik zaruratni inkor etmaydi, zarurat ham erkinlikni rad etmaydi. Mutafakkirning buyuk xizmati aynan shu haqiqatni tan olganidadir.

Erkinlik — bu anglab yetilgan zarurat, degan fikr bilan mutafakkir jarayon sof kuzatuvlardan iborat ekanini va uni faqat aql orqali anglash mumkinligini tushungan. «Men aql bilan boshqariladigan odamni erkin deb atayman» [11, 156], — deydi u. U irodani aql bilan tenglashtiradi. Spinoza fikricha, o'zini saqlab qolish va shaxsiy manfaatga intilish inson xulq-atvorini harakatga keltiradi. U irodaning doimo motivlar bilan bog'liqligini tan oladi va erkinlik zaruratni bilishga asoslangan xatti-harakat sifatida namoyon bo'lishi mumkin, deb hisoblaydi. Sharq mutafakkiri Forobiy va buyuk shoir hamda mutafakkir Alisher Navoiy o'z asarlarida axloqiy erkinlikni ulug'laganlar.

XULOSA

Shunday qilib, insonning erkin axloqiy faoliyati faqat zaruratni anglash asosida amalga oshadi. Zarurat shaxsni jonsiz qo'g'irchoqqa aylantirib qo'ymaydi — u o'zini sharoitlarning quliga aylantirishi ham, ularga ongli ravishda qarshi turishi ham mumkin. Zaruratni bilgan inson unga muvofiq harakat qiladi — bu uning erkinligidir. Agar u anglab yetilgan zaruratga bo'ysunmay, unga qarshi ish tutsa, bu — uning o'zboshimchaligidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Cohen H. *Kant's Theory of Knowledge*. Berlin: Bruno Cassirer, 1902.
2. Copleston F. *A History of Philosophy*, Vol. 1-5. London: Continuum, 1993.
3. Deleuze G. *Spinoza: Practical Philosophy*. San Francisco: City Lights, 1988.
4. Kojève A. *Introduction to the Reading of Hegel*. New York: Basic Books, 1969.
5. Асмус В.Ф. *Античная философия*. — М.: Высшая школа, 1976.
6. Гегель. *Сочинения*.- Т.3. - М.: Мысль, 1966.
7. Гессен С.И. *Кант и современная философия*. Москва: Наука, 1968.
8. Ильенков Э.В. *Диалектика абстрактного и конкретного в «Капитале» Маркса*. Москва: Прогресс, 1977.
9. Кант И. *Лекции по этике* / Под ред. А.А.Гусейнова. – М.: Республика, 2000.
10. Лосев А.Ф. *История античной философии в конспективном изложении*. — М.: Мысль, 1989.
11. Спиноза Б. *Избранные произведения в 2-х томах*. – М.: Мысль, 1957.